



## INKLYUZIV TA'LIMDA KADRLAR MASALASI

**Qodirova Feruzaxon Usmanovna**

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti  
pedagogika fanlari doktori (DSc), v.b professori.*

**Pulatova Dilfuza Azamkulovna**

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi.*

**Matanova Dilrabo Maxkamovna**

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi.*

### **Annotatsiya:**

**Kalit so'zlar:** *Inklyuziv ta'lif, kadr, maxsus ehtiyojli bola, resurs o'qituvchi, ijtimoiy pedagog, defektolog, logoped, tibbiy xodim*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'lifi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 27-iyuldagli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va boshqa hujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lif mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu hujjatlar asosida O'zbekistonda maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lif sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning dolzarb muammolari, erishilgan yutuqlar va qo'yilgan vazifalarni bajarish, inklyuziv ta'lifni rivojlantirish, alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini takomillashtirish kabi ishlar olib borilmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarish va amaliyotga tadbiq etishda inklyuziv ta'lif tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlarning o'rni katta bo'lib, ushbu maqolada ularning vazifa funksiyalari batafsil yoritib berilgan.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lif tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra mas'uliyat bilan ishlashni talab etadi.





Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lif pedagogik kvalifikatsiyasini olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o'qituvchisi umumiyl o'rta ta'lif muassasa Nizomida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda:

-tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me'yorga keltirish ishlarini olib boradi;

-bolalarning faolligini, ta'lif samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;

-diqqat-e'tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchkovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

-o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'lif jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o'rinn egallaydi.

Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi.

Inklyuziv ta'lif joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim.

Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilkclarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologo-pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lif muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lif muassasasida ta'lif-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin. Inklyuziv ta'lif muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi, zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'lif jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorni belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

Inklyuziv ta'lifda resurs pedagog va uning vazifalari

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lif sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi, ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lif amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin.





Hamma vaqt nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'lif sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs

nogiron bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llanmalar, jihozlar bilan ta'minlash, homiyalar topish, ota-onalarni maktabga yordam berishga jalb qilish va imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lom bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rtasidagi mustahkam aloqani o'rnatish, maxsus resurs qo'llanmalarni ta'minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar, oddiy sinf o'qituvchilarini va maktab ma'muriyatiga maslahatlar berish, shuningdek, maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'lif dasturlari haqida muhokamalar yuritish, xatto nogiron bo'limgan bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar yetkazib turadi.

Resurs o'qituvchi faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad: umumta'lif muassasalarida ta'lif olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga yordam ko'rsatishdan iborat.

Resurs o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- har bir o'quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, individual rejalaridan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o'quv dasturiga moslashishiga yordam berish, o'qitish va baholash;
- sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish;
- sinf o'qituvchilarini individual o'quv rejalarini bilan tanishtirish va ular bo'yicha maslahatlar berish;
- muntazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyotlarini muhokama qilish va baholash;
- maktab jamoasining boshqaruv xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash; - zarurat tug'ilsa, o'quvchilarni boshqa yordam ko'rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga);
- o'kituvchilar hamda o'kuvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish;
- standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish;
- o'zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda individual o'quv rejalarini yangilash va baholash.
- mavjud barcha resurslar (o'quv adabiyotlar, o'qitish qurilmalari va boshqa asboblarni hujjatlashtirish va ular ro'yxatini tuzish).

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi o'z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish rejasini tuzishda quyidagilarni hisobga olishi kerak:





- Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchilarning maxsus ta'limga olishga bo'lgan talablarga javob beradigan yordamlarni ko'rsatish;
- Sinf o'qituvchisi bilan birgalikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash;
- O'qituvchilar muhtoj bo'lgan xizmatlarni amalga oshirish;
- Bolaning o'qituvchisi yoki maktabi almashganda u haqidagi ma'lumotlarni yetkazib berishni boshqarish;
- Yangi kelgan o'qituvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va qondirish;
- Maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan oddiy sinflarga o'qituvchilarning moslashishiga yordam berish;
- Zarurat tug'ilganda sinfdan tashqarida individual va guruhlarga asoslangan ko'rsatmalarni berish;
- Individual dasturlarni muvaffaqiyatli bo'lishini boshqarish;
- Maxsus ta'limga muhtoj bolalarni maktabning jismoniy muhitiga jalgashda ularning shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi maktab boshqaruvi;
- Maxsus yordamchi vositalar va qo'llanmalarga bo'lgan talabni o'rganish va ulardan foydalanishni boshqarish;
- Inklyuziv ta'limga rivojlantirishni qo'llab - quvvatlash kabi masalalardan iborat bo'ladi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi faoliyat yuritmasligi, ko'p vaqtini yo'lda samarasiz sarflamasligi juda muhimdir. Resurs o'qituvchi nogiron bolalarning darslaridagi qiyinchiliklarni va ehtiyojlarini muhokama qiladi. Vaqtiga bilan u joylarda olib borilayotgan o'qituvchilar treningida nogironlik muammosi bo'yicha maslahat va ko'rsatmalar berib boradi. Masalan, nogiron bolaning nuqson xususiyatlarini, darajalarini aniqlash, individual psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar berish kabi. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga tizimida o'qitish, tarbiyalash jarayonida pedagog va ota-onalarga maslahat beruvchi resurs markazlarning roli ham muhim ahamiyatga ega.

#### Ijtimoiy pedagog – ijtimoiy ishchi vazifalari

- Bolani rivojlanishi uchun qulay bo'lgan muhitni tashkil qilish;
- Bola huquqini himoyalash qoidalariga rioya qilish;
- Bolani hayotiy ko'nikmasi, qobiliyatini, ta'limga olishi, sog'liqni saqlash, oiladagi sharoitlarini rivojlantirishga bo'lgan barcha ehtiyojlarini qondirish.

Bolani ijtimoiy himoyalash jarayonida ijtimoiy pedagog (ijtimoiy ishchi) bilan ishslash mumkin.

Har bir bola davlat himoyasida bo'lib, mamlakatimizda ijtimoiy qo'llash tizimiga barcha bolalar qamrab olingan. Bolalarni ijtimoiy qo'llash tizimiga qiyin kechinmalarga tushgan (boquvchisini yo'qotgan, ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bolalar;





institutsional muassasalarning bolalari; qarovsiz va tarbiyasi og'ir bolalar va boshqalar)

Ijtimoiy ishni maqsadi: bolani barcha ehtiyojlarini qoniqtirishga va uni oilasiga yordam berishdan iborat.

Bolani ijtimoiy himoyasining asosiy tamoyillari:

- Ijtimoiy yordam ko'rsatish ishining markazida bolani qiziqishi turadi;
- O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolati" qonuniga bola huquqlari konvensiyasiga qayd etilgan bolalarni barcha huquqlari kiritilgan ;
- Bolani qabul qilish e'tirof etish hurmat qilish;
- Shaxsni jinsiy, diniy, madaniy, irqiy, millatidan qat'iy nazar har qanday kamsitishlarga qarshi chiqish;

Ijtimoiy pedagog (ijtimoiy ishchi) oldida bolani ijtimoiy himoyasi bo'yicha qanday vazifalar turibdi?

- Ijtimoiy pedagog va ijtimoiy ishchi bolani uy sharoitida yashash huquqini ta'minlaydi;
- Ijtimoiy pedagog bolalarni maxsus institutsional muassasalarga tushib qolishini oldini oladi.
- Ijtimoiy pedagog bolaga bolaga nisbatan noto'g'ri, nojo'ya, qat'iy muomila va harakat qilishga yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydi va himoya qiladi;
- Ijtimoiy pedagog imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga, umumta'lim jarayoniga integratsiyalashuviga yordam beradi;
- Ijtimoiy pedagog yoki ijtimoiy ishchi bolani qulay bo'lgan sharoitida o'sishi uchun psixologik, ijtimoiy, moddiy yordamlarni qiyinchilikdan chiqib ketishi uchun yordam beradi;      • Bolaga va uning oilasini qo'llash uchun ijtimoiy pedagog yoki ijtimoiy ishchi qanday metod va yondoshuvlarni amalga oshiriladi;
- Ijtimoiy pedagog o'zini ish faoliyatiga tayangan holda nafaqat bolani va uning oilasi bilan tizimli ish olib boradi.

- Mavjud bo'lgan faktlarni tahlil qilib zamonaviy asboblardan foydalanib oila va bolalar holatini baholaydi;
- Oila va uni atrofidagilarga kuchli kuchli tomoniga tayangan holda yordam beradi.

Bunday jamiyat va oila uni atrofidagilarga ijobiy (pozitiv) o'zgarishlar kiritadi.

Qaysi muassasalar uchun ijtimoiy ishchi yoki pedagog kerak?

- Ta'lim tizimida mehribonlik uylari, umum ta'lim muassasalari, maxsus mакtab va maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqalar;
- Sog'liqni saqlash tizimida: ilk yoshdagи bolalar uyi, oilaviy poliklinika, tibbiy-psixologo-pedagogik komissiya, reabilitatsiya markazlari va boshqalar;
- Mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash tizimida (muruvvat uylari, ijtimoiy ta'minot bo'limlarida);
- Voyaga etmaganlar mahallalari komissiyasi, viloyati, tuman hokimiyatlari;





Umumta'liz maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etilish bilan oxirgi yillarda maktab kontingenti o'zgarib, 1-sinfga qabul qilingan bolalar orasida nutqida nuqsoni bor bolalar ko'payib bormoqda. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar orasida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar (alaliya, dizartriyaning og'ir ko'rinishlari) nutk maxsus maktablarda (nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktablarda) ta'lim—tarbiya olishlari lozim. Lekin, inklyuziv ta'lim muammosi bilan shug'ullanayotgan olimlar va mutaxassislar bunday bolalar umumta'liz maktablari o'qishlari va ularga tizimli ravishda maqsadga yo'naltirilgan logopedik yordam ko'rsatilishi lozim degan fikrlarni ilgari suradilar.

Inklyuziv ta'limni joriy etilishi umumta'liz maktablarida faoliyat yuritayotgan logopedlarga nisbatan talablarning kuchayishini ko'rsatmoqda. Jumladan, logoped differential tashxis qilish, korreksion ish bo'yicha individual ish rejalarini ishlab chiqish, nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar ota-onalar bilan suxbatlar o'tkazish kabi bir qancha vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ish rejalarini ishlab chiqishi lozim.

Inklyuziv ta'limni joriy qilingan maktablarda logoped defektolog, psixolog, tyutor o'qituvchilar bilan bir qatorda ish olib boradi.

Logopedning asosiy vazifasi dasturlarni egallashi va muloqatga kirishishda muammosi bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlarni olib borishdan iboratdir. Logoped faoliyatining maqsadi: alohida yordamga muhtoj bolalarning umumta'liz maktab dasturini egallashlari uchun nutq kamchiliklarini aniqlash va oldini olish, shuningdek og'zaki va yozma nutqini, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish.

Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Boladagi nutq nuqsonining darajasini aniqlash, psixologopedagogik tashxis qo'yish maqsadida logopedik tekshiruvni o'tkazish.
- Logopedik yordamga muhtoj bolalar bilan korreksion-logopedik ishlarni olib borish uchun perspektiv ish rejasini tuzish (individual ish reja).
- Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun nutq kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etishga qaratilgan usul va yo'llarini aniqlash.
- Bolalarning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda ularni guruxlarga saralash.
- Nutq kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha individual va guruxli mashg'ulotlarni o'tkazish.
- Alohida yordamga muhtoj bolalar umumta'liz maktabalarida o'qitishga doir moslashtirilgan o'quv dasturlari, metodik yo'riqnomalarni ishlab chiqishda ishtirok etish.
- O'quv materiallarini o'zlashtirishga qaratilgan turli xil metod va vositalarni aniqlash va tayyorlash.





- Umumta'lim maktab dasturini o'zlashtirishda alohida yordamga muhtoj bolalar nutqiy rivojlanish dinamikasini o'rganib borish.
- Alohida yordamga muhtoj bolalarning ota-onasi, psixolog va pedagoglar bilan doimo muloqatda bo'lish.
- O'qituvchi va tyutor o'qituvchi bilan birgalikda dars jarayonida, sinfda bolalar bilan o'zaro muloqat davomida bolaning nutqiy rivojlanishini nazorat qilib borish.
- Bolalarda nutqning ontogenetika rivojlanishi bo'yicha maslahatlar olib borish, bolalarda og'zaki nutq kamchiliklarini keltirib chiqaruvchi omillar, og'zaki va yozma nutq kamchiliklarini to'g'irlash bo'yicha ota-onalar bilan suxbatlar tashkil etish.
- Pedagogolarga nutq kamchiligidagi ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga oid usul va yo'llar bo'yicha maslahatlar berish.

Logopedning kasbiy faoliyatiga tashxis qilish, korreksion-rivojlaniruvchi ish, tashkiliy-metodik, maslahat va pofilaktik ishlar kiradi. Diagnostik yo'naltirilgan ish – logoped tomonidan alohida yordamga muhtoj bolalarning nutqiy rivojlanishi, nutq buzilishining kelib chiqish sabablari, nutq buzilishining bola shaxsiga ta'sirini chuqur o'rganishdan iborat. Logoped 2 xaftha ichida ( 2-15-sentyabr) va o'quv yilining oxirida (15-31-may) bola nutqini to'liq va chuqur tekshiradi. Ushbu tekshirishlar bola bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ish tizimini to'ri tashkil etish muhim hisoblanadi.

#### Korreksion - rivojlaniruvchi ish:

❑ Bolalardagi xar bir nutq kamchiliklarining tuzilishi va nomoyon bo'lishiga qarab logopedik ishlarni tashkil etish, o'qituvchilarga nutqini rivojlanirish bo'yicha maslahatlar berish.

❑ Bolalar nutq kamchiliklarini korreksiyalashda va rivojlanirish uchun optimal korreksion dasturlar, metodik qo'llanmalarini tanlash.

❑ Og'zaki va yozma nutqni rivojlanirishga oid guruxli va individual mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish, shuningdek nutqiy muloqatni rivojlanirish.

❑ Tashkiliy-metodik ishlar - korreksion-rivojlaniruvchi dasturlani ishlab chiqish, mashg'ulotlar uchun didaktik va metodik materiallarni tayyorlashdan iborat.

Sentyabr oyidan o'quv yilining oxirigacha logoped quyidagi hujjatlarni yuritadi:

Xar bir bola uchun alohida Nutq kartasi, perspektiv va kaledar ish rejasi, bolaning individual daftarlari, yillik xisobot. Logoped makkabning metodik birlashmasida, pedagogik yig'ilishlarda ishtiroy etadi. Logopedik xonani jihozlash, oxirgi adabiyot va metodik materiallardan foydalanishi lozim. Inklyuziv ta'limga amaliyotga jalb etishda logoped doimiy ravishda inklyuziv ta'limga xaqida





yuritiladigan me'yoriy hujjatlar va qabul qilingan qonunlarni, o'zining ilmiy-metodik bilimini rivjlantirib borishi lozim.

Maslahat va profilaktik ishlar :

- ② Og'zaki va yozma nutq ontogenezi, nutq kamchiliklarining kelib chiqish
- ② sabablari, nutq kamchiliklarini korreksiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish.
- ② Nutq ontogenezi va dizontogenezi bo'yicha o'qituvchilarga maslahatlar berish, inklyuziv ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirishga oid muhitni yaratish.
- ② Bolada ikkilamchi nuqsonni kelib chiqishini oldini olishni nazorat qilish.

Logopedning faoliyati o'qituvchi va psixolog bilan xamjixatlikda olib borilishi lozim.

Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyiliga ko'ra nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalshtirishni, uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim va ko'nikmalarga ega qilish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Bu esa inklyuziv ta'limda faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislarning kompleks, hamkorlikda yondoshib olib borilgan ishlari natijasida amalga oshirilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23-sentyabr.O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/acts/3436192>
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/5044711>
4. 2020-2025 yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lim Inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiysi. O'z.Res.Prezidenti. 13.10.2020y PQ 4860-son





5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni

6. Р.Ш.Шомахмудова.“Махсус ва инклузив таълим” услубий қўлланма. Тошкент-2011 йил.

7. Л.Р.Муминова. Инклузив таълим. Тошкент- 2014 йил.

8. Pulatova, D. A. (2022). THE USE OF ICT IN CLASSES ON THE DEVELOPMENT OF AUDIO PERCEPTION AND FORMATION OF PRONUNCIATION IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(19), 441-445.

9. Pulatova, D. A. ESHITISHDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING O'QUV FAOLIYATIGA MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH. ЭКОНОМИКА, 514-517.

10. Ishmatova, O. S. (2022). BOSHLANGICH TALIM SIFATINI YANGILASHDA UMUMTALIM MAKTABLARDA LOGOPEDIK SHAXOBCHALAR FAOLIYATINING ORNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 388-391.

